ORGANISER

ARP
Academic Research Publisher

PARTNER ORGANISATIONS

UniScience Journal

GRC
GLOBAL RESEARCH CENTER

HAMROH

ACADEMIC AND EDUCATION EXCELLENCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

MODERN SCIENCE:
GLOBAL ACHIEVEMENTS, CURRENT CHALLENGES AND DEVELOPMENT PROSPECTS



No scheduled presentations • Online • Electronic conference proceedings

08.08.2026

TASHKENT • LONDON

UZBEK • RUSSIAN • KARAKALPAK • ENGLISH

academscience.com

1% CHARITY INITIATIVE

zenodo | OpenAIRE | Indexed in Zenodo and OpenAIRE

CONFERENCE PROCEEDINGS

Academic Research Publisher (United Kingdom)

UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

Hamroh books (Uzbekistan)

****

MATERIALS

The international scientific-practical conference

«MODERN SCIENCE: GLOBAL ACHIEVEMENTS, CURRENT CHALLENGES AND DEVELOPMENT PROSPECTS»

Tashkent, London

August 8, 2026

****

Modern science: global achievements, current challenges and development prospects // Materials International Scientific-Practical Conference. Tashkent-London. August 8, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo‘shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

The event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the conference framework, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings, exchange scientific ideas, and expand international collaboration.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (August 7, 2026, Protocol No. 29).

7. EDUCATION, PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND PHILOLOGY

KOMEDIYALARDA KONNOTATIV MA'NONING IFODALANISHI

Toshboltayeva Shahloxon Rustamjon qizi
Unversity of Business and Science

Annotatsiya: *Ushbu maqolada komediyalarda konnotativ ma'noning ifodalanishi, uning asar mazmunini oshirishdagi ahamiyati va o'rni , konnotativ ma'no qanday vositalar orqali shakllanishi haqida ma'lumotlar berildi.*

Kalit so'zlar: *konnotativ ma'no, denotativ ma'no, kasbiy terminlar, neytral, mubolag'a, poetik metafora, polisemiya, sinekdoxa, kinoya, sarkazm.*

Abstract: *This article examines the expression of connotative meaning in comedies, its role and significance in enhancing the content of literary works, and the linguistic means through which connotative meaning is formed.*

Keywords: *connotative meaning, denotative meaning, professional terms, neutral vocabulary, hyperbole, poetic metaphor, polysemy, synecdoche, irony, sarcasm.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности выражения коннотативного значения в комедиях, его роль и значение в раскрытии и обогащении содержания художественного произведения, а также языковые средства, посредством которых формируется коннотативное значение.*

Ключевые слова: *коннотативное значение, денотативное значение, профессиональные термины, нейтральная лексика, гипербола, поэтическая метафора, полисемия, синекдоха, ирония, сарказм.*

Tilshunoslikda denotativ ma'no va konnotativ ma'no tushunchalari farqlanadi. Denotativ ma'no so'zning lug'aviy, asosiy ma'nosini bildirsa, konnotativ ma'no so'zning qo'shimcha baholash, emotsional yoki ekspressiv rangini ifodalaydi. Badiiy matn, xususan komediyalarda, kulgi hosil qilish ko'pincha so'zlarning konnotativ qatlamidan foydalanish orqali yuzaga chiqadi. Shu bois, komediyada konnotativ ma'noning qo'llanishini tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki estetik ahamiyatga ham ega.

Konnotativ ma’no so‘zning bevosita lug‘aviy ma’nosidan tashqari, unga qo‘shiladigan ijobiy yoki salbiy, kinoyaviy yoki istehzoli, xalqona yoki rasmiy rangdir. Masalan:

“qariya” – neytral;

“otaxon” – hurmat bildiruvchi ijobiy konnotatsiya;

“chollik” – istehzoli-salbiy konnotatsiya.

Komediyada aynan mana shu qo‘shimcha emotsional bo‘yoq kulgi manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Komediyalarda konnotativ ma’noning qo‘llanish usullari

O‘zbek komediyalarida xalq tiliga xos ibora va so‘zlar konnotativ yuklama kasb etadi.

Masalan, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida kelinlarga nisbatan “to‘ng‘ich kelin”, “armiyaga teng keladigan kelinlar” – deyish istehzoli kulgi hosil qiladi.

Rasmiy-burokratik leksika kulgili effekt ko‘pincha oddiy narsani rasmiy til orqali ifodalashdan kelib chiqadi. Erkin Vohidovning “Oltin devor” asarida oddiy devorni “xalq xo‘jaligi obyekti”, “milliy boylik” deb atash kulgi manbai hisoblanadi. Bu yerda “devor”ning denotativ ma’nosi oddiy qurilish inshooti bo‘lsa, konnotativ ma’nosi “strategik resurs” darajasiga ko‘tarilib, kulgi tug‘diradi.

Kasbiy terminlarning boshqa kontekstdan foydalanilishi – turli kasb sohalariga oid so‘zlarni g‘ayrioddiy joyda ishlatish ham konnotativ bo‘yoq yaratadi. Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasida xotin uy ishlarini bajaruvchi inson emas, balki “mexanizm”, “avtomat” sifatida tariflanadi. Bu yerda texnik terminlar salbiy-istehzoli konnotatsiya kasb etib, kulgi manbai bo‘ladi.

Mubolag‘a orqali konnotativ ma’no – mubolag‘ali ifodalar komediyada emotsional kuch beradi. Abdulla Qahhorning “Yangi yer” asarida qahramon “paxta shunaqa ko‘p bo‘ladiki, Toshkentgacha to‘kilib ketadi” deb gapiradi. Denotativ ma’no oddiy “hosil ko‘p bo‘ladi” bo‘lsa, konnotativ qatlam ortiqcha mubolag‘a orqali kulgi uyg‘otadi.

Komediyalarda konnotativ ma’noning badiiy-estetik ahamiyati shundan iboratki, qahramon nutqini individuallashtiradi. Har bir qahramonning xarakteri uning nutqidagi konnotativ qatlam orqali ochiladi. Satira va hajvni kuchaytiradi. Salbiy konnotatsiyaga ega so‘zlar illatlarni keskinroq ko‘rsatadi. Kulgini uyg‘otadi. Oddiy vaziyatlar konnotativ bo‘yoq orqali hazil va istehzoga aylanadi. Ijtimoiy tanqid vositasiga aylanadi. Rasmiy nutq va xalqona nutqning qarama-qarshiligi orqali jamiyatdagi byurokratiya, ma’naviy muammolar ochib beriladi.

Komediyalarda konnotativ ma’no — kulgi yaratishning eng samarali vositalaridan biridir. U qahramonlarning nutqini boyitadi, asarga xalqona ruh va hajviy rang bag‘ishlaydi. O‘zbek komediyalarida konnotativ ma’no odatda xalqona so‘zlar, rasmiy terminlarning g‘ayrioddiy ishlatilishi, kinoya va mubolag‘alar orqali yuzaga chiqadi. Bu esa komediyaning estetik ta’sirchanligini oshirib, uni nafaqat kuldiruvchi, balki o‘ylantiruvchi badiiy janr sifatida shakllantiradi.

Adibning tildan foydalanish mahoratini belgilashda asosiy mezonlardan biri – bu badiiy nutqning ifodalilik va ta’sirchanlik darajasini qay darajada ta’minlay olganligidir. Bu jarayonda ko‘p ma’noli so‘zlar (polisemantiya) o‘zining birlamchi lug‘aviy ma’nosidan tashqari, muayyan estetik maqsad yo‘lida yangi ma’no qatlamlarini (semalarni) namoyon etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘p ma’noli so‘zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga, uning obrazli va ko‘p qirrali bo‘lishiga ko‘maklashuvchi eng faol lisoniy vositalardan biri hisoblanadi. Yozuvchi mahorati shundaki, u ma’lum bir so‘zni kontekst ichida shunday mahorat bilan qo‘llaydiki, natijada so‘z o‘zining odatiy informativ vazifasidan chiqib, badiiy-estetik yuk tashiydigan birlikka aylanadi.Tildagi ko‘p ma’nolilik hodisasi polisemiya deyiladi. Til hodisasi sifatida polisemiyani o‘rganilishi ko‘proq nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tilimizdagi so‘zlarning ko‘p qismini polisemiya tashkil etadi.

Tilshunos Sh.Raxmatullayev polisemiya hodisasini sinchiklab va muntazam o‘rganib boruvchi semasiolog olimdir. U o‘zining ilmiy ishlarida, xususiy “Leksik ma`noni komponet tahlil qilish tajribasidan” maqolasida polisemantik so‘zning eng kichik semalari orasidagi aloqalardan tartib polisemiya hodisalarini umumiy, zaxiriy tasnifgacha va ushbu hodisaga oid atamalarning o‘rni va mazmuni masalasigacha e’tibor bilan qarab, diqqatga sazovor fikrlarni bildiradi. Masalan, polisemiya hodisasini polisemiya deb, shunday xususiyati bor leksemani polisemantik leksema deb, tilshunoslikning yuqoridagi hodisalarni o‘rganuvchi sohani sememalogiya deb nomlashni taklif etadi.

A.Xojiev «O‘zbek tili leksikologiyasi» nomli kitobning «Semasiologiya» bobida hamda «So‘z semantik strukturasining taraqqiyoti» maqolasida polisemiya hodisasi, uni yuzaga keltiruvchi faktorlar, omonimiya bilan polisemiyaning farqlari kabi masalalarga keng to‘xtalgan.

Ko‘p ma’nolilikning lingvistik mohiyatini rus tilshunosi S.O.Kartsevskiy birinchi bo‘lib aniqlagan. U ko‘p ma’nolilikni mohiyatini belgilashda belgini assimetrikligi va ma’nodan kelib chiqadi. Bitta belgi o‘z ma’nosidan tashqari boshqa ma'nolarni ham ifodalashga intiladi.

O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida bu jihatdan keyingi yillarda Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Abdulla Avloniy, Mirtemir, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov kabi taniqli ijodkorlar asarlarining tili va o‘ziga xos uslubi haqida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar e’tiborga molik.

O‘zbek komediyalarida konnotativ ma’no ifodalovchi ko‘p ma’noli so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin. Chunki ular kulgi yaratishning eng sermahsul vositalaridan biridir. Masalan,A.Qahhorning “Yangi yer” komediyasida Hamrobibi rahmatli eridan qolgan soatni “so‘fi” deb nomlab olgan. Bu ma’no ko‘chish usulidagi metaforaga misol bo‘ladi:

Hamrobibi. Keling, quda jizza solgan edim. Soatingizni buramaganingizni qarang!...Ko‘nlingizga kelmasin-u, quda, soatni burash mening esimdan hech chiqmaydi. Rahmatlik pochchangiz: ***“Soat uyning so‘fisi”,*** *– deb edi. “Hoy,* ***so‘fini buradingmi”; “hoy, so‘fi nimaga jiringlamayapti”*** *deb turar edi. Soatni burash esdan chiqsa, Xudo sendan chiqadi-ya, jon quad!*

Polisemiyani yuzaga keltiruvchi faktorlar, yani metafora asosida nom ko‘chish o‘z navbatida tilning taraqqiyot darajasini ham ko‘rsatuvchi faktorlardan hisoblanadi. Chunki bir so‘z yordamida birdan ortiq narsa, hodisalarni ifodalash imkoni til tarkibining ixchamligini ta`minlaydi. Ko‘p ma’nolilikning keltirib chiqaradigan sabab va asoslarning bo‘lishi tabiiydir. Polisemiya ancha murakkab hodisa bo‘lib, so‘z semantik strukturasida mavjud bo‘lgan har bir ma`noni belgilash qiyin, shu bilan birga ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga molik narsadir. Metafora bir narsa belgi, harakat nomi boshqasiga uzaro tashqi o‘xshashligi asosida ko‘chirilsa, metafora yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi.

Metafora asosida nom ko‘chganda ishtirok etgan predmetlar uchun umumiy bo‘lgan belgi tushunchada saqlanadi. Predmet narsa, hodisa va boshqalarning o‘zaro biror belgi o‘xshashligi tufayli bir predmet nomining ikkinchi predmetga ko‘chirish, ya`ni nom ko‘chish jarayonini ifodalash, shuningdek ko‘chma ma`nodagi so‘z va iboralar metafora deb yuritiladi.(1.3) Polisemiyani vujudga kelishida asos sifatida metaforani olish uchun, avvalo uning xususiyatlariga e`tibor berish kerak. Metafora ikkiga:

1.Poetik metafora.

2.Lingvistik metaforaga ajratish ahamiyatlidir. Zero, professor A.A.Reformatskiy ko‘rsatgan poetik metafora va poetik metonimiya yo‘li bilan nom ko‘chganda, u predmet yoki hodisa uchun to‘g`ridan tog`ri nom sanalmaydi, balki poetik ravishda biror kontekst yoki jumlaning ifodali, ta`sirli chiqishi uchun qo‘llanadi.(2.64)

Lingvistik metaforalar umumxalq tilida paydo bo‘lib, biror predmetning nomiga aylanib qolgan metaforadir. Lingvistik metaforalar barqaror bo‘ladi, ularning bosh ma`nodan biror belgi o‘xshashligi tufayli ajralib chiqqanligi sezilib turadi. Masalan, bel so‘zi odamning beli, o‘rdaning beli, so‘zning beli kabi.

Toshbolta huddi belbog`idan ajray turg`andek ikki qo‘li bilan belbog`iga yopishdi.(3.53)

O‘rdaning belidan, ya’ni shimoldan sharqqa qarab mustahkam devor va bu devorning ikki tarafidan barobar ling tashlanib o‘rdaning ichkari qismig`a xon saroyig`a kirilar edi. Bu ikki misoldagi bel so‘zining birinchisi bosh ma’no bo‘lib, undan metafora asosida “o‘rta qism” ma’nosi kelib chiqqan bo‘lib, ikkinchi misoldagi bel so‘zi hosila ma’nodir.

O‘zbek tilida metaforaning quyidagi ko‘rinishlari keng qo‘llaniladi.

1. Bir predmet nomi boshqa bir predmetga shakliy o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi. Bu tur quyidagi bo‘laklarga ajraladi:

a) odamning yoki parrandalarning tana a`zolari nomlari o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi;

b) kiyimlarning yoki ularning biror qismi o‘xshashligi asosida;

v) o‘simlik yoki uning biror qismiga o‘xshashtish.

2. Turli belgi, xarakat nomlariga o‘xshashlik asosida nom ko‘chish.

3.Metafora asosida nom ko‘chishi faqat mustaqil so‘z turkumlari doirasidagina emas, yordamchi so‘zlarda ham uchraydi.Masalan: orqa, old, ust ost, ichkari kabi so‘zlar.

Badiiy nutqning estetik jozibadorligini va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatini ta’minlovchi eng faol vositalardan biri metaforadir. Metaforalar uslubiy jihatdan kuchli bo‘yoqdorlikka ega bo‘lib, badiiy matnda qahramonning ruhiy holati va his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda hamda aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Muallif metaforalarining tub mohiyatida doimo konnotativ (qo‘shimcha baholovchi) ma’no mavjud bo‘ladi va aynan metaforik ko‘chishlar jarayonida ushbu konnotatsiya o‘zining eng yuqori nuqtasiga ko‘tariladi.

O‘zbek dramaturgiyasida zoonimik metaforalar (hayvon va qush nomlari orqali yuzaga keladigan ko‘chishlar) inson xarakterini tipiklashtirishda fundamental ahamiyatga ega. Masalan, ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars, boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul kabi leksemalar o‘zining birlamchi lug‘aviy ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda keng assotsiativ maydonni qamrab oladi. Hayvon va qushlarga xos bo‘lgan:

Ot – quvvat va shiddat;

Eshak – aqlsizlik yoki qaysarlik;

Qo‘y – haddan tashqari yuvoshlik;

It – vafodorlik yoki (kontekstga qarab) haqorat;

Tulki – makkorlik va ayyorlik;

Lochin – o‘tkir nigoh va jasorat kabi tipik xususiyatlarning inson xarakteriga metaforik ko‘chirilishi natijasida matnda boy semantik qatlam yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida badiiy tasvir obyektining ekspressivligini oshiradi.

Said Ahmadning “Oltin devor” komediyasida Saidmalik obraziga nisbatan qo‘llanilgan “tulki” metaforasi qahramonning nafaqat tashqi harakatlari, balki uning ichki makkorona tabiatini ham fosh etuvchi asosiy lisoniy marker hisoblanadi. Shuningdek, narsa-buyumlarni jonlantirish yoki ularga insoniy sifatlar berish orqali ham kuchli metaforik obrazlar yaratiladi. Masalan, matnda soatning “so‘fi” deb atalishi shunchaki o‘xshatish emas, balki predmetning funksional xususiyatini (vaqtida xabar berish, uyg‘otish) shaxsga xos sifatlar bilan sintez qilish natijasida yuzaga kelgan individual-muallif metaforasidir

A.Qahhorning “Yangi yer” komediyasida sinekdoxa usuli bilan so‘z ma’nosining koshish kuzatiladi:

Rahimjon. Yoshlik xo‘p yaxshida. Hozirgi yoshlarni ko‘rsam jonim rohat qiladi. Nima ishga yopishsa, ***o‘n qo‘llab*** *yopishadi-ya! O‘t! (4.6)*

Ko‘rinib turibdiki, insonda o‘nta qo‘l emas, o‘nta panja bor. Bu tasvir usuli yoshlar bor kuchi bilan mehnat qilishayotganini anglatadi.Matndagi yopishmoq so‘zi ham ko‘chma mo‘noda ishlatilgan. “Yopishmoq” so‘zida metafora usulida ma’no ko‘chgan.

Sinekdoxa — miqdoriy va mantiqiy munosabatlarga asoslangan lisoniy hodisa. Badiiy nutqni individuallashtirish va uning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytirishda sinekdoxa, ya’ni butun va bo‘lak munosabatiga asoslanuvchi ma’no ko‘chishi usuli muhim o‘rin tutadi. Sinekdoxa mohiyatan miqdoriy ko‘chish bo‘lib, unda predmetlar, hodisalar yoki tushunchalar o‘rtasidagi hajmiy bog‘liqlik asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiy matnlarda sinekdoxaning shakllanishi ikki xil yo‘nalishda kechadi:

Ko‘plik o‘rnida birlik yoki birlik o‘rnida ko‘plik shakllarini qo‘llash: Bu usul tildagi tejamkorlik tamoyiliga tayanadi. Masalan, “Olma gulladi” deganda bitta daraxt emas, balki butun bog‘dagi barcha daraxtlar nazarda tutilishi birlik shakli orqali umumiy ko‘plik mazmunini ifodalashga xizmat qiladi.

Butun nomi bilan bo‘lakning yoki bo‘lak nomi bilan butunning ifodalanishi: Butun nomi bilan bo‘lak: “Daraxtlar sarg‘aydi” (aslida barglar sarg‘aygan) yoki

“Qo‘limni kesib oldim” (aslida qo‘lning bir qismi , barmoq yoki teri kesilgan) kabi birikmalarda butun tushuncha orqali uning tarkibiy qismi ifodalanadi.

Bo‘lak nomi bilan butun: “Har ishga burnini suqmoq”, “Tirnoqqa zor”, “Jamoaning qo‘li baland keldi” kabi iboralarda inson a’zolari (burun, tirnoq, qo‘l) orqali butun shaxs yoki jamoa faoliyati anglashiladi.

Komediyalarda sinekdoxadan foydalanish personaj nutqiga obrazli ixchamlik bag‘ishlaydi. Ayniqsa, bo‘lak nomi bilan butunni ifodalashda qahramonning muayyan xususiyati yoki harakati bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Masalan, asarda biror personajga nisbatan “O‘sha qora ko‘z keldi” yoki “Bir juft shirin so‘zga zor” deb aytilishi, lisoniy tejamkorlik bilan birga, kuchli emotsional bo‘yoqdorlikni yuzaga keltiradi.Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta’minlash maqsadida foydalaniladi.

Komediyalarda konnotativ ma’no bevosita so‘zlarni ko‘chma ma’nolarda ishlatish va komik xarakter hamda yumor yaratish maqsadida hosil qilinadi. Badiiy asarda ijodkor idealiga zid xarakter va hodisalarning kulgi yo‘li bilan inkor etilishi komiklik deyiladi. Komiklik obyekt va subyekt birligida namoyon bo‘ladi: uni yuzaga kelishi uchun obyektdagi nomuvofiqlikni ko‘ra oladigan va ideal nuqtayi nazaridan baholay oladigan subyektning bo‘lishi shart. Komiklikning turli ko‘rinishlarida komiklikni yuzaga chiqish yo‘sini bir xil bo‘lmaydi. Masalan, satira va yumorda subyekt munosabati ko‘proq obyektdagi ziddiyatni bo‘rttirib ko‘rsatish orqali namoyon bo‘lsa, *kinoya* va *sarkazmda* obyektdagi ziddiyat, asosan, muallif munosabati orqali yuzaga chiqariladi. Shuning uchun ham sarkazm va kinoya obyektida nomuvofiqlik yaqqol ko‘zga tashlanmaydi, ular ko‘p jihatdan kontekst bilan bog‘liq bo‘ladi. Komik munosabat obyekti o‘zida idealga tamoman zid illatlarni yoki ulardan ayrimlarini namoyon etadiki, shu jihatdan satira va yumor ko‘rinishlari farqlanadi. Satira obyektda idealga mutlaqo zid, jamiyatning joriy holati nuqtayi nazaridan to‘la inkor qilinuvchi ziddiyatlarni aks ettirsa, yumorda obyektdagi ayrim jihatlarnigina inkor qilish ko‘zda tutiladi. Yumorda badiiy asardagi kishilar, voqea-hodisalar ustidan yengil, do‘stona, beg‘araz kulish ko‘ngilxushlik maqsadida emas, qisman bo‘lsa-da, idealga muvofiq jihatlarni ko‘rish, uni mukammallashtitish, nuqsonlarini bartaraf qilish, undagi umuminsoniy tuyg‘ularni yuzaga chiqarish maqsadini ko‘zlaydi. Shuning uchun ham yumorda nuqsonlar ustidan kulish bilan birga xayrixohlik, achinish ham mavjud.Yumorda kulgi niqobi ostida jiddiylik, kinoyada esa jiddiylik niqobi ostida kulgi yashiringan bo‘ladi. Komiklik ko‘rinishlaridan biri bo‘lmish kinoyada muallif voqelikka kinoyaviy munosabatda bo‘ladi, bu holda badiiy asar kompozitsiyasi kinoyaviy nuqtayi nazarni ifodalashga mos ravishda quriladi. Shuningdek, kinoya usuli til birliklarining nutq jarayonidagi faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan nutqiy hodisadi.

Kinoyaviy munosabat ideal va voqelik o‘rtasidagi keskin nomuvofiqlikni anglashdan tug‘iladi. Shunga ko‘ra kinoyaviylikning maqsadi faqat kulgi hosil qilishgina bo‘lib qolmay, vaziyatning qanchalik jiddiyligi va hatto fojeiyligini ham ta’kidlab ko‘rsatishdan iborat bo‘ladi:

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmatullaev Sh. Nutqimiz ko‘rki. –Toshkent, 1970.
2. Nurmonov A. *O‘zbek tilshunosligi nazariyasi*. – Toshkent.
3. Qahhor, A. Toshbolta oshiq // Asarlar. 5 jildlik. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
4. Yangi yer / Abdulla Qahhor // Asarlar. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
5. Hojiyev, A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
6. Iminov M., Nu’monov T., Boboxonova D. O‘zbek tili uslubiyati Masalalari. – Namangan, 2007.
7. Boshbekov Sh. Temir xotin. – Toshkent: Oltin qalam, 2024.
8. Rahmatullaev Sh. Semik tahlil va sinonimiyani ta’riflash masalasi, O‘zbek tili va adabiyoti, 1979.

